



## TA'LIM SOHASIDA KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNI BAHOLASH INSTITUTINING HUQUQIY BO'SHLIQLARI

**Sobirov Xasanjon**

*Qo'qon davlat universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi) yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

Korrupsiyaga qarshi zamonaviy siyosatning markaziy yo'nalishi huquqbuzarlikni sodir etilganidan keyin jazolashdan, uni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarni oldindan aniqlash va bartaraf etishga ko'chmoqda. Mazkur profilaktik yondashuvning asosiy vositasi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash instituti. O'zbekistonda u "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun<sup>1</sup> va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tizimini joriy etgan Farmon<sup>2</sup> bilan boshlanib, 2022-yilgi qaror<sup>3</sup> orqali tizimli normativ shaklga keldi. Mazkur qarorga muvofiq, davlat tashkilotiga yuklangan har bir funksiya Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Adliya vazirligi tasdiqlagan baholash uslubiyoti asosida tahlil qilinadigan bo'ldi. Transparency International ma'lumotlariga ko'ra mamlakatning korrupsiyani idrok etish indeksi so'nggi yillarda yaxshilangan bo'lsa-da, u hamon yuqori korrupsiya darajasini aks ettiruvchi chegaradan past<sup>4</sup> bo'lib, bu profilaktik institutlarning sifatli huquqiy negizga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi.

Ta'lim sohasi bu institutning amaliy sinov maydoni sifatida alohida ahamiyatga ega. S.P. Heyneman ta'kidlaganidek, ta'lim tizimlari uzoq vaqt korrupsiyaga begona deb hisoblangan bo'lsa-da, amalda ular davlatning boshqa bo'g'inlari kabi korrupsiyaga moyil bo'lib, postsovet makonida asosiy muammo baho, qabul va attestatsiya evaziga pora olish bilan bog'liq. M. Kirya esa universitetlardagi korrupsiyaning aynan akademik o'lchovini markaziy deb biladi<sup>5</sup>. Shu bois ta'limda xavf-xatarni baholash institutining qanchalik mukammal huquqiy negizga ega ekani uning samaradorligini belgilovchi hal qiluvchi omildir.

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuni. – <https://lex.uz/docs/-3088008>

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-sonli Farmoni. – <https://lex.uz/docs/-4875784>

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-sonli qarori. – <https://lex.uz/docs/-6000285>

<sup>4</sup>Transparency International. Corruption Perceptions Index 2024 // <https://www.transparency.org/en/cpi/2024/index/uzb>

<sup>5</sup>Kirya M. Corruption in universities: Paths to integrity in the higher education subsector. – Bergen: U4 Anti-Corruption Resource Centre, U4 Issue 2019:10.

Ta'limdagi korrupsiyaning ijtimoiy bahosi alohida yuksak sanaladi. Heyneman ko'rsatganidek, talaba bahoni sotib ola olsa, uning bilim olishga rag'batini pasayadi, ish beruvchi esa diplom egasining haqiqiy malakasiga ishonchini yo'qotadi, pirovardida ta'limga qilingan xususiy va ijtimoiy sarmoyaning samarasi tushadi. Bundan-da jiddiyrog'i, yoshlar muvaffaqiyat mehnat va halollik bilan emas, balki manipulyatsiya va pora orqali keladi degan ishonchni o'zlashtirsa, jamiyatning huquqiy poydevoriga putur yetadi. Demak, ta'lim sohasida xavf-xatarni baholash shunchaki ma'muriy formal jarayon emas, balki tizimning ishonch resursini himoya qiluvchi institutdir. Quyida ushbu institutning ta'lim sohasidagi beshta asosiy huquqiy bo'shlig'i tahlil qilinadi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash O'zbekistonda uchta o'zaro bog'liq, ammo bir-biridan farq qiluvchi profilaktik institutdan birini tashkil etadi. Ulardan birinchisi normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishdan, ikkinchisi tashkilot ichidagi komplayens-nazoratdan, uchinchi esa funksiyalarni xavf-xatar nuqtai nazaridan baholashdan iborat. Baholash davlat tashkilotining har bir funksiyasini ko'rib chiqishni, uni vakolatli organlar tasdiqlagan uslubiyot bo'yicha tahlil qilishni va natijalarni idoraviy korrupsiyaga qarshi dasturlarga kiritishni nazarda tutadi. Baholash, qoida tariqasida, yiliga kamida bir marta amalga oshiriladi.

Ta'lim sohasida bu institut oliy ta'lim muassasalarining komplayens bo'limlari hamda "Korrupsiyasiz soha" loyihasi orqali tatbiq etiladi, oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi esa shaffoflik va korrupsion omillarni bartaraf etishni strategik vazifa sifatida belgilaydi<sup>6</sup>. Manfaatlar to'qnashuvi 2024-yildan boshlab alohida qonun bilan tartibga solinmoqda<sup>7</sup> va bu institutning huquqiy muhitini boyitdi. Shunga qaramay, baholash institutining ta'limga moslashuvi chuqurroq tahlil qilinganda, bir qator huquqiy bo'shliqlar namoyon bo'ladi.

Muhimi shundaki, xavf-xatarni baholash yuqorida sanab o'tilgan boshqa profilaktik institutlar bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, ular o'rtasidagi metodologik aloqa qonunchilikda aniq belgilanmagan. Komplayens-nazorat xavf-xatarni boshqarishning institutsional egasi, normativ hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi uning normajodkorlik o'lchovi, funksiyalarni baholash esa diagnostik vositasi vazifasini bajaradi. Ta'lim muassasasida bu uch element ko'pincha bir-biridan ajralgan holda, turli idoraviy hujjatlar asosida amal qiladi va natijada xavf-xatarni baholash yakuniy qaror hamda boshqaruv jarayoniga bog'lanmay, alohida hisobot hujjati bo'lib qoladi. ISO 31000 talab etadigan xavfni boshqarishni tashkiliy jarayonlarga va qaror qabul qilishga singdirish tamoyili milliy amaliyotda hali to'liq qaror topmagan.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun "korrupsiya", "korrupsiyaga oid huquqbuzarlik" va "manfaatlar to'qnashuvi" tushunchalariga qonuniy ta'rif beradi. Biroq butun institutning markaziy obyekti bo'lmish "korrupsiyaviy xavf-xatar" tushunchasi qonun darajasida ta'riflanmagan. ISO 31000 xalqaro standarti xavfni "maqsadlarga noaniqlikning ta'siri" sifatida belgilab, uni

<sup>6</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni. – <https://lex.uz/docs/-4545884>

<sup>7</sup>O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-sonli Qonuni.

baholash uchun yagona atamashunoslik va metodologiyani taklif etadi, milliy tizimda esa baholash predmeti faqat qonosti uslubiyoti darajasida belgilanadi. Bu hol huquqiy aniqlik (legal certainty) tamoyiliga zid bo‘lib, institutning predmeti barqaror qonun bilan emas, balki o‘zgaruvchan idoraviy hujjat bilan belgilanishi uning huquqiy kuchini zaiflashtiradi. Ta’lim kabi konstitutsiyaviy ahamiyatga ega sohada ushbu kamchilik ayniqsa sezilarli, zero bu yerda xavf-xatarning ta’rifi pirovardida fuqaroning ta’lim olish huquqi bilan bevosita bog‘lanadi.

Eng tub bo‘shliq baholash uslubiyotining ta’lim sohasiga metodologik nomutanosibliigi. Qaror va unga asoslangan uslubiyot davlat boshqaruvi funksiyalarini, ya’ni ma’muriy vakolatlar, ruxsatlar va davlat xizmatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Bu mantiq ijro hokimiyati organlari uchun o‘rinli bo‘lsa-da, ta’lim muassasasining mohiyati ma’muriy organnikidan tubdan farq qiladi. Heyneman tipologiyasiga ko‘ra, oliy ta’limdagi korrupsiya, asosan, to‘rt sohada tovar va xizmatlarni g‘ayriqonuniy xarid qilishda, muassasaning oddiy funksiyalaridagi (qabul, baholash, bitirish, yotoqxon va akademik mahsulotlar) firibgarlikda, kasbiy nojo‘ya xulqda (qarindoshlarga imtiyoz berish, jinsiy ekspluatatsiya, baholashdagi xolislikning buzilishi, ilmiy plagiat) hamda soliqdan qochishda to‘planadi. Bu hodisalarning aksariyati ma’muriy funktsiya emas, balki akademik jarayondir.

Ma’muriy funktsiya tahliliga qurilgan uslubiyot, masalan, imtihon baholashidagi subyektiv ta’sir, dissertatsiya himoyasidagi noformal kelishuvlar yoki ilmiy ishlardagi plagiat kabi xavf-xatarlarni metodologik jihatdan ko‘rmaydi, chunki bu hodisalar rasmiy ma’muriy reglamentlarda alohida funktsiya sifatida qayd etilmaydi. Yevropa Kengashining ta’limda etika, shaffoflik va halollik platformasi aynan shu sababli mexanistik emas, balki tamoyilga asoslangan yondashuvni ilgari suradi. Bu qarashga ko‘ra, ta’limdagi halollik alohida funktsiyalarni tekshirish orqali emas, balki barcha ishtirokchilar o‘qituvchi, talaba, ma’muriyat va ota-ona qabul qiladigan yagona etik tamoyillar tizimi orqali ta’minlanadi,

Bu nomutanosiblikni xavf-xatar joylashuvining o‘zgaruvchanligi yanada kuchaytiradi. So‘nggi yillarda talabalar qabuli markazlashtirilib, raqamlashtirilgani bu bosqichdagi korrupsiyaviy xavfni sezilarli kamaytirdi, biroq aynan shu jarayon xavf-xatarning boshqa bo‘g‘inlarga joriy va oraliq baholash, fanni qayta topshirish, bitiruv malakaviy ishi va dissertatsiya himoyasi, ilmiy daraja va unvon berish hamda grant taqsimotiga ko‘chishini ko‘rsatdi. Funktsiyalarning statik ro‘yxatiga asoslangan uslubiyot esa bunday dinamik siljishni o‘z vaqtida qamrab ololmaydi, chunki u o‘tmishdagi xavf-xatarni qayd etadi-yu, yangi paydo bo‘layotganini ko‘rmaydi. Shu bois ta’lim uchun mo‘ljallangan metodika funksional emas, balki jarayonga va xavf-xatar dinamikasiga yo‘naltirilgan bo‘lishi shart.

Xavf-xatarlarni baholash instituti davlat organlari va davlat ulushi yuqori bo‘lgan tashkilotlarga qaratilgan. So‘nggi yillarda esa O‘zbekistonda nodavlat oliy ta’lim muassasalari, xorijiy universitetlar filiallari va xususiy ta’lim provayderlari soni jadal o‘sdi. Mazkur subyektlar ko‘pincha davlat byudjetidan moliyalashtirilmagani bois xavf-xatarni baholashning majburiy rejimidan tashqarida qoladi, vaholanki ularda ham qabul, baholash va diplom berish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud. Natijada ta’lim bozorining tobora kengayib borayotgan qismi institutning

tartibga solish maydonidan tashqarida, ya'ni "kulrang hudud"da qolmoqda. Bu hol nafaqat samaradorlikni, balki tizimning yaxlitligi va teng sharoitlar tamoyilini ham cheklaydi.

Amaldagi tartibga ko'ra, baholash natijalari idoraviy korrupsiyaga qarshi dasturlarga kiritiladi, biroq aniqlangan xavf-xatarni bartaraf etmaslik uchun aniq huquqiy oqibat yoki javobgarlik belgilanmagan. Buyuk Britaniyaning Bribery Act qonuni va ISO 37001 standartida "yetarli tartib-taomillar" mavjudligi yuridik ahamiyat kasb etadi, ya'ni profilaktik choralarning ko'rilmagani tashkilot uchun huquqiy oqibatga olib keladi. O'zbekiston modelida esa baholash deklarativ tus oladi, zero tahlil rasman bajarilsa-da, uning natijasi majburiy huquqiy kuchga ega bo'lmaydi. Oqibatda institut o'z maqsadidan uzoqlashib, rasmiyatchilik xavfiga duchor bo'ladi.

Amalda xavf-xatar ko'pincha o'z-o'zini baholash tarzida, ya'ni baholanayotgan muassasaning o'zi tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa baholash jarayonining o'zida manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltiradi. ISO 31000 va ISO 37001 standartlari xavfni boshqarishda mustaqil verifikatsiya, yuqori rahbariyatning mas'uliyati va xavf-tolerantligi mezonlarini belgilashni talab qiladi. Ta'lim sohasida xolislikni ta'minlovchi qo'shimcha resurs bo'lmish talabalar, professor-o'qituvchilar va jamoatchilikning baholashga jalb etilishi milliy uslubiyotda yetarli ifodalanmagan. Mustaqil tashqi nazoratsiz o'z-o'zini baholash, tabiiyki, xavf-xatarning kamaytirib ko'rsatilishiga moyil bo'ladi.

O'tkazilgan tahlil ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash instituti shaklan mavjud bo'lsa-da, mazmunan bir qator huquqiy bo'shliqlar tufayli to'liq samara bermayotganini ko'rsatadi. Bunga tushunchaviy ta'rifning yo'qligi, uslubiyotning akademik jarayonlarga nomutanosibliigi, subyekt doirasining torligi, natijalarning deklarativligi va o'z-o'zini baholashdagi xolislik muammosi sabab bo'lmoqda. Ushbu bo'shliqlarni bartaraf etish uchun quyidagilar taklif etiladi.

Birinchiidan, "korrupsiyaviy xavf-xatar" tushunchasini qonun darajasida mustahkamlash lozim. Buning uchun "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunga "Korrupsiyaviy xavf-xatar tashkilot yoki uning xodimi faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilishi ehtimolini oshiruvchi shart-sharoit yoxud omil. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash davlat hamda nodavlat tashkilotlari, shu jumladan ta'lim muassasalari faoliyatida majburiy tartibda amalga oshiriladi" mazmunidagi norma kiritilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchiidan, ta'limning o'ziga xosligini hisobga olgan holda akademik jarayonlarga qabul, baholash, attestatsiya, dissertatsiya himoyasi, ilmiy grantlar va akademik halollikka moslashtirilgan maxsus sohaviy baholash metodikasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Uchinchiidan, institut subyekt doirasini nodavlat oliy ta'lim muassasalari va xorijiy universitetlar filiallariga ham kengaytirish zarur. To'rtinchidan, baholash natijalariga aniq huquqiy oqibat, ya'ni aniqlangan xavfni bartaraf etish bo'yicha majburiy reja va uni bajarmaslik uchun javobgarlik bog'lash lozim. Beshinchidan, o'z-o'zini baholashni mustaqil tashqi verifikatsiya hamda talabalar va jamoatchilik ishtiroki bilan to'ldirish kerak.

Yakunan shuni ta'kidlash joizki, profilaktik institut o'zining huquqiy negizi predmeti, metodi, subyekt doirasi va oqibatlari jihatidan mustahkamlanmas ekan, u

korrupsiyani oldindan to‘sovchi mexanizm emas, balki shakliy hujjat aylanmasi bo‘lib qolish xavfini saqlaydi. Ta’limdagi halollik bir avlodning bilimi, mehnat bozorida adolat va davlatga bo‘lgan ishonch bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli, mazkur bo‘shliqlarni bartaraf etish nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy zaruratdir.